



ALIMENT MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHIMLARI

TURAKULOV BOYBURI KUZIMURATOVICH

IV Surxondaryo akademik litseyi huquqshunoslik fani bosh o'qituvchisi

Kalit so'zlar: *oila, aliment, aliment miqdori, aliment to'lash tartibi, aliment qarzi, ota-ona va farzandlar*

Ключевые слова: *семья, алименты, размер алиментов, порядок выплаты алиментов, задолженность по алиментам, родители и дети*

Keywords: *family, alimony, alimony amount, alimony payment procedure, alimony debt, parents and children.*

Oila qurib, qonuniy nikohdan o'tish maqsadida ariza bilan murojaat etuvchilarning har biriga, albatta, oila muqaddasligi, uning mustahkamligini ta'minlash, ayniqsa, tug'ilajak farzandlar kelajagi uchun mas'ullik haqida keng tushunchalar beriladi. Afsuski, turli sabablarga ko'ra oila qurgan yoshlarning hammasi ham bir umrga baxtli oila bo'lib yashab ketaolmaydi. Eng achinarlisi, ko'pgina holatlarda bir yoki bir necha farzandi bilan ota-onasi uyiga qaytgan onalar moddiy va psixologik jihatdan qiyin ahvolga tushib qoladi. Natijada, ona o'z farzandining kelajagi uchun zarur bo'lgan moddiy ta'minotni sud orqali undirishga majbur bo'ladi. Lekin ko'p hollarda otalar o'z zimmasidagi aliment majburiyatni

unitib, aliment to'lovlarini turli bahonalar bilan amalga oshirmaydi yoki haqiqiy daromadlarini yashirishga harakat qiladi. Bunday mas'uliyatsiz otalar harakati natijasida jamiyat manfaatlariga jiddiy zarar yetadi va farzandlarimiz kelajagini xavf ostida qoldiradi.



Ayrim holatlarda esa kelin moddiy jihatdan ta'minoti yaxshi oilaning farzandi bo'lgani uchun sobiq turmush o'rtog'ining oldida past ketmaslik uchun aliment olishdan voz kechadi. Bolani otasiga ko'rsatmaslik maqsadida ham aliment ta'minotini rad etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasiga binoan "Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

" [1]. Ushbu qoida Oila kodeksi 100-moddasida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, Ota-ona voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta'minot berishi shartdir.

Voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta'minot berish ota-onaning kelishuviga binoan amalga oshiriladi. Ota-ona o'rtasida bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda nizo sud tartibida hal qilinadi deb belgilab qo'yilgan.

Mazkur maqolada oilaviy-huquqiy munosabatlardan biri bo'lgan aliment munosabatlari muhokama qilinadi. Aliment to'lash tartibi, er-xotinning aliment borasidagi majburiyatlari, aliment qarzini hisoblash tartibi tahlil qilinib, takliflar beriladi.

Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar o'z samarasini bermoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6118- sonli Farmoniga ko'ra, 2021-yil 1-martdan boshlab ijro hujjatlari bo'yicha aliment majburiyatlarini bajarish qarzdorlar tomonidan aliment majburiyatlarini ijro etish va nazorat qilishning yagona axborot tizimi orqali amalga oshirilmoqda [3].

Aliment majburiyatlarini ijro etish va nazorat qilishning yagona axborot tizimi aliment majburiyatlari bo'yicha alohida bank hisob varag'i bilan birlashtirildi. Bunda



Majburiy ijro byurosi (MIB) tomonidan ijro hujjatlari bo'yicha undiruvchi (aliment oluvchi) nomiga tegishli bank plastik kartasi ochildi hamda aliment pullari, shu jumladan qarzdorning ish haqidan ushlab qolingani aliment pullari ushbu aliment majburiyatlari bo'yicha alohida bank hisob varag'i orqali mazkur bank kartasiga o'tkazildi.

Buning natijasida:

- aliment undirish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosi va aliment undirilishini nazorat qilish ishlari avtomatlashtirildi;
- aliment to'lovchi va oluvchilarga qulaylik yaratildi;
- aliment to'lovchilar masofaviy nazoratda bo'lishi ta'minlandi;
- fuqarolarning murojaatlari ancha kamaydi.

Misol uchun, Majburiy ijro byurosida hozirda ish yurituvdagi 1 million 200 mingga yaqin ijro hujjatlarining 300 mingdan ortig'ini (25 foizi) aliment to'lovlariga oid ijro ishlari tashkil qiladi.

Oila kodeksning 99-moddasiga ko'ra, agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oylik ish haqi va boshqa daromadining bir bola uchun to'rt dan bir qismi; ikki bola uchun uchdan bir qismi; uch va undan ortiq bola uchun yarmisi miqdorida undiriladi. Bu to'lovlarning miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin. Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonun hujjatlari bilan belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 26,5 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

Agar aliment to'lovchi shaxs alimentni o'z vaqtida to'lmasa aliment qarzdorligini keltirib chiqaradi. Oila kodeksining 140-moddasida aliment qarzining miqdorini belgilash tartibi ifodalangan bo'lib, unga ko'ra, voyaga yetmagan bolalarga to'lanadigan aliment qarzining miqdori aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning ish haqi yoki boshqa daromadi miqdoridan kelib chiqqan holda aliment



undirilmagan vaqt uchun hisoblab chiqiladi. Agar aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs shu davrda ishlamagan bo'lsa yoki uning ish haqi va (yoki) daromadini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilinmagan bo'lsa, aliment qarzi undirilayotgan vaqtda aliment O'zbekiston Respublikasidagi o'rtacha oylik ish haqi miqdori bo'yicha hisoblab chiqiladi. Agar qarzni bunday belgilash taraflardan birining manfaatlariga jiddiy putur yetkazsa, manfaatlariga putur yetkazilgan taraf sudga murojaat qilishga haqlidir. Sud taraflarning moddiy va oilaviy ahvolini va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni inobatga olib, qarzning pul bilan to'lanadigan qat'iy summasini belgilashi mumkin.

Hozirgi vaqtda aliment to'lovchilarning ko'pchilik qismini erkaklar tashkil etadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ularning aksariyat qismi rasmiy ish joyiga ega emas va mavsumiy ishlar bilan shug'ullanadi. Kelib chiqqan aliment qarzi esa Oila kodeksining 140-moddasiga binoan, o'rtacha oylik ish haqi miqdori bo'yicha hisoblab chiqiladi. Ushbu summani to'lash mavsumiy ishchi uchun juda katta qiyinchilik tug'diradi. Taklif: Shuni hisobga olgan holda aliment qarzini hisoblab chiqishda mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 26,5 foizini inobatga olsa eng adolatli bo'lardi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida aliment masalasidagi qarzdorlarning aksariyat qismini chet elda ishlovchi mehnat muhojirlari tashkil etadi. Lekin ularning ba'zilari voyaga yetmagan farzandi oldidagi majburiyatini ixtiyoriy yoki majburiy tartibda ham bajarishdan bo'yin tovlashadi. Sudyalar tomonidan majburiy tartibda aliment undirish to'g'risidagi qaror chiqarilgan bo'lsa-da, ular davlatimiz hududida bo'lmaganligi tufayli farzand uchun belgilangan moddiy summani undirishning iloji bo'lmaydi. Ushbu holatni bartaraf etish maqsadida sud organlari mehnat muhojirlari chet eldan (o'z nomidan) pul yuborganlarida, ushbu summadan aliment qarzi olib qolish choralari ko'rilishi lozim.

Oila kodeksining 118-moddasi nikohdan ajralganidan keyin sobiq er (xotin)ning ta'minot olish huquqiga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra, yetarli



mablag'ga ega bo'lgan sobiq erdan, sobiq xotin homiladorlik davrida va o'rtada bola tug'ilgan kundan boshlab uch yil davomida sud tartibida aliment talab qilish huquqiga egadir.

Aholi orasida o'tkazilgan so'rovnomalar shuni ko'rsatadiki, nikohdan ajralishga er-xotin o'rtasidagi turli xil xiyonat va ahloqsiz munosabatlar sabab bo'lgan taqdirda sobiq er xotiniga aliment to'lashdan bosh tortadi. Bu mantiqan olib qaraganda to'g'ri. Shuning uchun nikohdan ajralganidan keyin sobiq er (xotin)ning ta'minot olishi to'g'risidagi sud qarori nikohdan ajralishning sababini o'rgangan holda belgilanishi lozim deb hisoblaymiz.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki oila muqaddas, uni arzimagan bahona va sabablar bilan tugatish va farzandlarning kelajagini shubha ostida qoldirish eng katta xato ishdir. Hazrat Jaloliddin Rumi aytganidek oilaning mustahkam bo'lishi hamda ajrimlar bo'lmasligi uchun "Baxtli oila qurishning ikki sharti bordir: yaxshi turmush o'rtoqni tanlay bilmoq va yaxshi turmush o'rtoq bo'lmoq"dir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 09.02.2023 y., 03/21/671/0093-son. <https://lex.uz/docs>

2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi,

20.12.2024 y., 03/20/653/1592-son. <https://lex.uz/docs/-104720>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-noyabrda qabul qilingan PF-6118-

son "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs>.